



NAVOIY VILOYATI KARMANA TUMANI HOKIMINING QARORI

2026-yil 12-mart

57-5-71-Q/26

Karmana tuman hokimiligi

Karmana tumanidagi bo'sh turgan yer uchastkasini bo'sh turgan yer uchastkasi sifatida hisobga olish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 451-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi "MulK huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-198-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-223-sonli Farmonining 5-bandiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Ilovaga muvofiq Karmana tumanidagi bo'sh turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan va boshqa yer uchastkasi davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilsin.

2. Karmana tumani hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosariga:

Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga mazkur qaror ilovasida ko'rsatilgan bo'sh turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan va boshqa yer uchastkasining davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan tartibda buyurtma berilishini ta'minlasin.

3. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (S.Aliqulov) mazkur qarorga asosan bo'sh turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan va boshqa yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish, yer hisobotiga tegishli o'zgartirishlar kiritish ishlarini amalga oshirsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (U.Rustamov), Karmana tuman hokimligi bo'sh turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan va boshqa yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlarini o'rnatilgan tartibda tuman mahalliy byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishini ta'minlasin.

5. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (S.Aliqulov), “O‘zdavyerloyiha” ilmiy-loyihalash instituti viloyat bo‘limi bilan birgalikda o‘n kun muddatda bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan va boshqa yer uchastkasini belgilangan tartibda elektron onlayn auksion savdolariga chiqarish choralarini ko‘rsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.Tashnazarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Sh.Boltayev

Karmana tumani hokimining
2026-yil 12-martdagi
57-5-71-Q/26-son qaroriga
1-ilova

**Karmana tumanidagi bo'sh turgan yer uchastkasining davlat mulki
sifatida davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan yer uchastkasi to'g'risida
MA'LUMOT**

gektar

t/r	Yerdan foydalanuvchi	Hududi	Jami yer maydoni	Ekin yeri	Bo'z yerlar	Yaylo v yerlar	Ariq va zovurlar	Boshqa yerlar
2	“Navoiy erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi” AJ Abdullayev Farxod Azamatovich	Sardoba MFY	9,19					9,19
		Jami	9,19					